

Comparative Turkish Dialects and Literatures
Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri ve Edebiyatları
Cilt/ Volume 1, Sayı / Issue 3, Mayıs/ May 2023, 27-32

Atıf/Citation: Akbarova, X. (2023). Lingvopoetika Sohasining Vujudga Kelishi va Nazariy Masalalari. *Comparative Turkish Dialects and Literatures*. 1 (3), 27-32.

**LINGVOPOETIKA SOHASINING VUJUDGA KELISHI VA
NAZARIY MASALALARI**

Lingvo-poetika Disiplinin Ortaya Çıkışı ve Alanla İlgili Teorik Meseleler

**The Emergence of The Discipline of Linguo-Poetics and Related Theoretical
Issues**

Araştırma Makalesi / Research Article

(Makale Geliş Tarihi: 14.04.2023 / Kabul Tarihi: 30.05.2023)

Xolisxon AKBAROVA*

Annotatsiya

Til kishilik jamiyatining ruhiyati va faoliyatini turli nuqtai nazarlardan tadqiq etuvchi murakkab o`ziga xos xodisadir. XX asr dunyo filologiyasida eng samarali yutuqlardan biri tilni tizim sifatida o`rganishni yo`lga qo`yilganligidir. Tilshunoslikda yangi soha yo`nalishlarining yuzaga kelishi ilmiy tadqiqotlar maydonining kengayishiga olib kelmoqda. Sof ilmiy lingvistika til faktlari tahlili bilan bog`liq bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda ko`zga tashlanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar ikki va undan ortiq fanlarning hamkorligida amalga oshirilishi bois sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmatolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi yangi fan tarmoqlari vujudga kelmoqda. Lingvopoetika sohasining yuzaga kelishida tilshunoslik fanining

* Ögr. Gör., Hokand Devlet Pedagoji Enstitüsü, İlköğretim Bölümü; *Lecturer, Kokand State Pedagogical Institute, Department of Primary Education*, akbarovax195@gmail.com, ORCID ID: orcid.org/0009-0005-1232-2167.

adbiyotshunoslik bilan hamkorligi natijasida yangi termin va u bilan bog`liq tushunchalar doirasi kengayishiga olib keldi.

Badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish nafaqat dunyo tilshunosligi, balki o`zbek tilshunosligining ham hozirgi paytdagi muhim masalalaridan biridir. Ushbu sohaning mundarijasi haqida so`z borganda hali o`zining to`liq yechimiga ega bo`lgan va tadqiqot chegaralari mukammal darajada belgilangan deyishlik qiyin masala. Maqolada lingvopoetika sohasining yuzaga kelish tarixi haqida so`z boradi. Lingvopoetikaning tadqiqot ob`yektlari haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: lingvopoetika termini, lingvopoetikaning nazariy asoslari, stilistik aspektda o`rganish, epik tahlil

Özet

Dil, toplum psikojisini ve eylemlerini farklı bakış açılarıyla ele alma imkânı tanıyan karmaşık, benzersiz bir olgudur. 20. yüzyılın dünya filolojisine kazandırdığı en önemli yeniliklerden biri, dillerin sistematik olarak incelenmeye başlanmasıdır. Dilbilimde yeni alanların ortaya çıkması, bilimsel araştırma alanının genişlemesini sağlamaktadır. Dil üzerine bugüne kadar yapılmış çalışmalar genellikle sadece dilbilimsel yaklaşımın ürünüdür. Fakat son zamanlarda disiplinler arası çalışmalar neticesinde toplumsal dilbilim, psiko-dilbilim, edim dilbilim, dil-kültüroloji ve bilişsel dilbilim gibi yeni bilim dalları ortaya çıkmaktadır. Lingvo-poetika alanı, dilbilimi ve edebiyat bilimi arasındaki ortak çalışmalar sonucu eydana gelmiş olup bu sayede yeni terim ve kavramlar ortaya çıkmıştır.

Herhangi bir edebi eserin lingvo-poetik özelliklerini tespit etmek, dünyada olduğu gibi Özbek dilbiliminin de günümüzdeki önemli konularından biridir. Bu alana ait çalışmalara bakınca, temel meselelerin hala tam olarak çözüldüğünü veya sorunlu alanların sınırlarının kesin olarak tespit edildiğini söylemek zordur. Bu makalede lingvo-poetika disiplininin ortaya çıkış süreci anlatılmış ve lingvo-poetik analizin yapıtaşları üzerinde durulmuştur.

Anahtar kelimeler: dilbilim terimi, dilbilimin kuramsal temelleri, üslup açısından inceleme, epik çözümleme

Abstract

Language is a complex unique phenomenon that explores the psyche and activity of human society from different perspectives. One of the most effective achievements in world philology of the 20th century is the study of language as a system. The emergence of new areas in linguistics leads to the expansion of the field of scientific research. Pure scientific linguistics is visible in the scientific research carried out to date related to the analysis of language facts. Due to the fact that researches in this field are carried out in collaboration of two or more disciplines, new branches of science such as sociolinguistics, psycholinguistics, pragmatic linguistics, linguocultural studies, and cognitive

linguistics are emerging. As a result of the cooperation of linguistics with literary studies in the emergence of the field of linguopoetics, the scope of the new term and related concepts has expanded. Researching the linguopoetic features of a work of art is one of the important issues not only of world linguistics, but also of Uzbek linguistics. When it comes to the content of this field, it is difficult to say that it still has its full solution and the boundaries of research are perfectly defined. The article talks about the history of the emergence of the field of linguopoetics. Information is given about the research objects of linguopoetics.

Key words: the term linguopoetics, theoretical foundations of linguopoetics, study in stylistic aspect, epic analysis

Kipicne

Til kishilik jamiyatining ruhiyati va faoliyatini turli nuqtai nazarlardan tadqiq etuvchi etuvchi murakkab o`ziga xos xodisadir. XX asr dunyo filologiyasida eng samarali yutuqlardan biri tilni tizim sifatida o`rganishni yo`lga qo`yilganligidir. Tilshunoslikda yangi soha yo`nalishlarning yuzaga kelishi ilmiy tadqiqotlar maydonining kengayishiga olib kelmoqda. Sof ilmiy lingvistika til faktlari tahlili bilan bog`liq bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda ko`zga tashlanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar ikki va undan ortiq fanlarning hamkorligida amalga oshirilishi bois sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yangi fan tarmoqlari vujudga kelmoqda. Lingvopoetika sohasining yuzaga kelishida tilshunoslik fanining adbiyotshunoslik bilan hamkorligi natijasida yangi termin va u bilan bog`liq tushunchalar doirasi kengayishiga olib keldi.

Badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish nafaqat dunyo tilshunosligi, balki o`zbek tilshunosligining ham hozirgi paytdagi muhim masalalaridan biridir. Ushbu sohaning mundariyasi haqida so`z borganda hali o`zining to`liq yechimiga ega bo`lgan va tadqiqot chegaralari mukammal darajada belgilangan deyishlik qiyin masala. Hanuzgacha turli xil qarashlarning mavjudligi unga taalluqli til fklari tahlilida soha mazmuniy strukturasi belgilanishini qiyinlashtirmoqda. Badiiy asar til materiallarini til yoki adabiyot ilmi nuqtai-nazaridan o`rganish natijasida lingvopoetikaga oid tushunchalar ba`zida lingvistikaga, ba`zida faqat adabiyotshunoslikka oid degan yuzaki qarashlari vujudga keltirgan.

Tadqiqotchilar oldiga lingvopoetikaga oid ikki va undan ortiq fan mazmunini o`zida aks ettirgan tushunchalarning mazmuniy va shakily strukturasi uyg`unlikdagi ilmiy nazariyalar bilan to`ldirish, ularning mohiyatini yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyitish mas`uliyat va yangi vazifalarni yuklaydi.

Lingvopoetikaning predmeti tadqiq doirasi, tushuncha va yo`nalishlarini aniq belgilash asosiy ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Sanab o`tilganlarning barchasi, lingvistika hamda adabiyotshunoslik sohalarining uyg`unlashuvi natijasida yuzaga kelgani uchun ham yozuvchi yoki so`zlovchi tomonidan berilayotgan sotsial axborotning lingvistik hamda poetik tuzilishini bir yoki bir necha shakily paradigmada o`rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Yangi yo`nalishdagi tadqiqotning ob`ekti til sanaladi, ana shu til orqali ifodalangan poetik maqsad yoki poetik hodisa, uning mazmuniy strukturasi lingvopoetika tadqiq qiladi. Tilning lingvopoetik struktura asosini yozuvchi uslubining turli-tumanligi, xilma-xilligi, o`zgachaligi, kutilmaganligi, ta`sirchanlik darajasi kabilarni ifodalovchi vositalar tashkil qiladi. Muallifning kommunikativ niyati va maqsadi, hozirjavobliligi, qahramonlar ruhiyati hamda hamda xarakteriga xos bo`lgan jihatlar lingvopoetik strukturada namoyon bo`ladi. Ilmiy tushunchalarning mazmuni nutq, matn, ifoda tarkibida namoyon bo`ladi. Shu bois ham badiiy matnning har qanday shakli yozuvchi yoki shoirning poetik mahorati asosida lingvistik birliklar strukturasi joylanadi. Shuning uchun ham lingvopoetikaning materiali hisoblangan matn umumiy til qonuniyatlari yig`indisi sifatida talqin qilinadi.

Badiiy asar tilini lingvopotik o`rganish, “stilistik aspektda” o`rganishga qaraganda, bir qadar ilgari qo`yilgan qadam va ancha samarali yo`l ekanligi bugun aniq-ravshan bo`lib bormoqda. Badiiy asar tilini tahlil qilishda lingvopoetika lingvistikaning alohida yangi sohasi sifatida yangi yo`nalishlardan biridir. Bu yo`nalish bo`yicha amalga oshirilgan izianishlar sohaning mundarijasini o`zida hali to`liq aks ettira olgan deya olmaymiz. Tilshunoslikda *lingvopoetika* tushunchasini tor tushunish tufayli poetik xarakterdagi asarlarning til xususiyatlari o`rganiladi, degan qarash mavjud. Aslida poetika tushunchasining mazmuni juda kengdir. Qadimda bu borasida Arastu o`zining “Poetika” asarini yaratdi. Unda poetik san`at-she`riy janrlar(navlar) haqida to`xtalib, poetika –poeziya san`ati haqida so`z yuritgan. Nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligini ta`kidlab, “Til va fikr” bobida to`xtalib o`tadi (Zadornova, 2005: 160).

XX asr tilshunosligida badiiy asar tilini tadqiqiga keng e`tibor berilgani sababli, *ritorika* va *poetika* tushunchalarini birlashtirgan holda tadqiq etishni o`zida aks ettiruvchi “*lingvopoetika*” termini paydo bo`ldi.

Har qanday janrning til xususiyati bilan bog`liq bo`lgan muammolarni lingvopoetika tadqiq qiladi. Lingvopoetika har qanday janrning til xususiyatlari bilan bog`liq muammolarni nazariy yodashib tahlil qiladi. Epik asarlarning ham til xususiyatlari jihatdan o`rganilishi lingvopoetika tushunchasi bilan izohlanadi. XX asrning 60-yillaridan lingvopoetikaga bo`lgan qiziqish shakllana boshladi. O`sha

davrdan boshlab lingvopoetika termini poetik tilning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganuvchi tilshunoslik yo`nalaishi sifatida yuritila boshlandi. “Filologik poetika” terminidan ko`ra “lingvopoetika” terminidan foydalanish maqul deb ko`rilgan. Unda lingvistik birliklar yordamida tadqiqotchi tomonidan o`rganilayotgan badiiy asar poetikasi va tili o`rtasidagi dialektik bog`lanish lingvistik aks ettirilgan. Shu sababdan lingvopoetika sohasi alohida tarmoq sifatida bugungi kunda ajratilgan.

Hozirda mavjud rus va o`zbek tilidagi lug`atlarda lingvopoetika filologiya ilmida yangi tarmoq sifatida shakllanganligi sababli, aynan “lingvopoetika” terminiga alohida ta`rif berilmagan. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlar “poetika” terminini quyidagi ma`nolarni ifodalashini aytib o`tadi (1979: 242): “1. Keng ma`noda badiiy adabiyot, uning qonuniyatlari, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari; janr, uning shakl va mazmun jihatlarining o`zaro munosabati, kompozitsiya tiplari, syujet qurilishi va h.k.lar poetika termini bilan yuritiladi. Bunda poetika termini bevosita adabiyot nazariyasi terminining sinonimi vazifasini o`taydi. 2.Tor ma`noda she`riy asar va uning tuzilishi, har bir she`riy janr va uning evolutsiyasi, ularning kelib chiqishi va taqdiri, she`riy stlistika, she`riy nutq va uning xarakteri, turli she`riy san`at va tasvir vositalari ham poetika termini bilan yuritiladi” (Zadornova, 2005: 160). Hozirga qadar “poetika” tushunchasining badiiy asar tilidagi muayyan o`rnini belgilovchi yaxlit konsepsiya berilmagan bo`lib, u turli davrlarda turli yo`sinda talqin qilib kelinadi. Aristotelning “Poetika” asari (1979: 39) ko`plab manbalarda poetikaga ilk bor asos solingan asar sifatida e`tirof etiladi. Mazkur asarda san`atning asosiy tamoyili hayotni aks ettirish va maqsadi ta`lim tarbiya ekanligi ta`kidlanadi. Ushbu asarda “poetika” termini umuman badiiy adabiyot haqidagi fan yoki adabiyotshunoslik ma`nosida qo`llangan. Shuningdek, adabiyotning asosiy turlari:epos, lirika va drama deb ko`rsatilgan hamda tasvir usuli, janr, syujet kabi masalalar yoritilgan. “Poetika” termni o`rta asrlarda she`rsunoslik hamda badiiy nutqni bezash vosita va usullarii tekshiruvchi adabiyotshunosliking ma`lum bir sohasiga nisbatan qo`llana boshladi.

“Ilmiy adabiyotlarda “lingvopoetika” terminiga shunday ta`rif beriladi: “filologiyaning alohida bo`limi bo`lgan lingvopoetikaning predmeti bu –yozuvchi badiiy asarda foydalanadigan va g`oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirish uchun kerak bo`ladigan estetik ta`sirni ta`minlovchi til vositalarining majmui hisoblanadi” (Lipgart, 2006: 26).

A. A. Lipgartning qayd etishicha, lingvopoetika termini va u bilan bog`liq hodisalar tadqiqi murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bunga sabab mazkur termin orqali ifodalangan tushunchalar ikki xil tadqiqot usullaridan foydalanishni taqozo qilari edi. Ulardan birining maqsadi biror-bir asarda qo`llanilgan muayyan

uslubning temetik-stilistik tavsifi ifodalangan umumiy holatni imkon qadar to`liq ko`rsatish bo`lsa, ikkinchisi biror-bir g`oyaviy-badiiy mazmuni yetkazish va muayyan estetik effect yaratilishida formal til elementlarining rolini aniqlashga yo`naltilgan badiiy matnni tadqiq qilishdir. Biroq ikkala yondashuvda matnning shakily va mazmuniy tomonlarini bir vaqtda ko`rib chiqish tamoyili yotganligi sababli ularni “lingvopoetika” termini bilan birlashtirish mumkin”(https://uz.wikipedia.org › wiki).

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, o`zbek tilshunosligi fani o`tgan davr mobaynida talaygina yutuqlarni qo`lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog`liq muammolarning o`rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ham yaqqol ko`rsatmoqda. Bunga “matn lingvistikasi” deb ataluvchi deb ataluvchi tilshunoslik yo`nalishining tezlik bilan rivojlanib borayotganligi misol bo`la oladi.

Natija

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, o`zbek tilshunosligi fani o`tgan davr mobaynida talaygina yutuqlarni qo`lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog`liq muammolarning o`rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ham yaqqol ko`rsatmoqda. Bunga “matn lingvistikasi” deb ataluvchi deb ataluvchi tilshunoslik yo`nalishining tezlik bilan rivojlanib borayotganligi misol bo`la oladi.

Adabiyotlar

Aristotel (1979). Poetika.- Toshkent: Adabiyot va san`at, 1979.-B.39.

Lipgart A.A. (2006). Osnovi lingvopoetiki.-M, S. 26.

Xotamov. N - Sarimsoqov B. (1979). Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati.-Toshkent: O`qituvchi, B.242.

Zadornova V. Ya (2005). Lingvopoetika. Slova v xudojastvennom tekste.// Yazik ,soznanie, kommunikatsiya: S.B. statey/Otv.red. V. V. Krasnix, A. Lizatov.- M.: MAKS. Pres, Vip.29.-S.160.

<https://uz.wikipedia.org> › wiki